



**BIR BO'LSAK - YAGONA XALQMIZ,  
BIRLASHSAK - VATANMIZ!**

**Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda**

# Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2024-yil 28-avgust № 8 (1542)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

**MUSTAQILLIK  
BAYRAMINGIZ  
MUBORAK  
BO'LSIN!**



## BUGUNGI SONDA

### TABRIK

Eng ulug', eng aziz bayram muborak! 2

### JARAYON

Ishlab chiqarish quvvati oshirilmoqda 3

### QONUNCHILIK

Aholining muammolariga yechim topildi 4

### BUYUK AJDODLARIMIZ

Bobolarimiz merosi – ulug' qadriyat 5

### SANA

Korxonada yangi bosqich 6

### BOR GAP

Firibgarlardan ogoh bo'ling! 8

### SO'RAGAN EDINGIZ

"Foydalanilmagan ta'tillarim pulini olishim mumkinmi?" 9

### TAFAKKUR

Behuda umr 12





"BIR BO'LSAK - YAGONA XALQIMIZ, BIRLASHSAK - VATANIMIZ!"

# ENG ULUG', ENG AZIZ BAYRAMIMIZ MUBORAK BO'LSIN!

## Hurmatli metallurglar, aziz bekobodliklar!

Sizlarni, barcha yurtdoshlarimizni O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni bilan chin qalbidan tabriklayman!

Mustaqillik bayrami qadimiy, go'zal va betakror Vatanimiz - O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har birimiz uchun eng ulug', eng aziz bayramdir!

1-sentabr - O'zbekiston tarixida xalqimizning hamjihatligi, bunyodkorlik ruhi timsoli, milliy davlatchiligimizni, o'zligimiz va insoniy haq-huquqlarimizni tiklab bergan, barcha yutuq va marralarimizning zamini bo'lgan Mustaqillik kuni sifatida biz uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kun.

Mustaqillik bergan imkoniyatlar, uning ma'naviy asoslari, "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarining ahamiyati, yurtimiz tinchligini asrash, bunyodkorlik muhiti yurtdoshlarimizning porloq kelajagimizga ishonchini tobora mustahkamlamoqda. Bu davlatimiz rahbarining oqilona siyosati samarasidir.

Kombinatimiz ishlab chiqarish sur'atlarini muttasil oshirib, mahsu-

lot turlarini ko'paytirish orqali yurt ravnaqiga katta hissa qo'shayotganini g'urur va katta mamnuniyat bilan qayd etaman. Metallurglar jamoasining fidokorona mehnati tufayli "O'zmetkombinat" AJ ko'plab jiddiy muammolarni hal etish bilan birga, jahon bozorlarida mustahkam joy egallash imkoniyatlariga erishmoqda.

Keyingi yillarda kombinatda metallurgiya

uskunalarini yangilash barobarida qator investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Yirik loyihalardan biri - "Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi" bo'lib, uning ishga tushirilishi bilan korxonaning ishlab chiqarish quvvati ikki barobarga ortadi. Bundan tashqari, prokat importini qisqartirish hisobiga xorijiy valyutani sezilarli darajada tejashga erishiladi va yangi ish o'rinlari yaratiladi.

## Hurmatli metallurglar, hamkasblar, ishlab chiqarish faxriylari!

Bu yil "O'zmetkombinat" AJ ishga tushganligiga 80 yil to'ldi. O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligi nishonlanayotgan kunlarda kombinatimiz o'zining 80 yillik muvaffaqiyatli faoliyati bilan Vatanimizning shonli yilnomasidan alohida joy olgan.

Siz, aziz yurtdoshlarimni O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilalaringizga baxtu saodat, fayzu baraka tilayman.

Ezgu orzu-niyatlarimiz amalga oshsin!

**Rashid PIRMATOV,**  
"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi  
raisi - bosh direktori.



## MUKOFOT MUBORAK!

Mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, barcha soha va tarmoqlarda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishdagi ulkan xizmatlari, jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sado-

qat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi ibratli faoliyati hamda jamoat ishlari-dagi faol ishtiroki uchun bir guruh yurtdoshlarimiz Prezident Farmoni bilan mukofotlandilar. Ular orasida kombinatimizning Elektrda po'lat eritish bo'linmasi operatori Abdumo'min Mirzamatov ham bor. U "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

**Mukofot muborak bo'lsin!**



## JONAJONIM O'ZBEKISTONIM

*Uzoq ketsam yuragimda sog'inch uyg'onar,  
Talpinaman qololmayman bu yurak yonar,  
Havoingdan nafas olsam tinchligim qonar.  
Qadrligim, ona yurtim gullagan bog'im,  
Sen o'zingsan osmon o'par ishongan tog'im.*

*Madhing kuylab jar solaman butun dunyoga,  
Tinglasinlar ash'orimni yetsin samoga,  
Bayram bo'lsin diyorlarim to'lsin navoga.  
Qadrligim, ona yurtim gullagan bog'im,  
Sen o'zingsan osmon o'par ishongan tog'im.*

*Zaminimiz har burchagi gulga burkangan,  
Tuproq'iga cho'p qadasang shaksiz ko'kargan,  
O'g'lonlari qo'rqamas, jasur shunday yaralgan.  
Qadrligim, ona yurtim, gullagan bog'im,  
Sen o'zingsan osmon o'par ishongan tog'im.*

*G'ururlangum sen bilan men ona makonim,  
Tomirimda qaynasa-da to'kilmas qonim,  
Faxr etgum jonajonim O'zbekistonim.  
Osmon kabi baland bo'lsin qadri, kamoli,  
Kundan-kunga chiroy ochsin go'zal jamoli.*

**Bahodir RAHMONQULOV.**

## HASHAR - ELGA YARASHAR HAMJIHATLIK, OBODLIK RAMZI



O'tgan shanba va yakshanba kunlari "Mahalla obod - yurt obod" shiori ostida o'tkazilgan umumxalq hasharida metallurglar kombinat hududi hamda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish maskanlarida obodonlashtirish va tozalash ishlari amalga oshirdilar. Kombinatar tarkibiy bo'linmalari atrofidagi hovli va maydonchalar, bog' va gulzorlar xiyobonlar saranjom-sarishta qilib tozalandi.

O'zbekistonliklar Mustaqillik bayrami munosabati bilan ketma-ket 4 kun dam oladi. 3-sentabr, seshanba ish haftasining turidan qat'i nazar, barcha xodimlar uchun qo'shimcha dam olish kuni etib belgilangan. 1-sentabr - O'zbekiston mustaqilligi kuni 2024-yilda yakshanba - dam olish kunlariga to'g'ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni 2-sentabr, dushanba kuniga ko'chiriladi. 31-avgust, shanba - haftasiga 6 kun ishlaydiganlar uchun qo'shimcha dam olish kuni, 5 kunliklar uchun odatiy dam olish kuni bo'ladi.



# MUSTAQILLIK – BUYUK VA BEBAHO NE'MAT!

Mustaqillik yillarida ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rin oldi.

Biz mustaqillik tufayli o'zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning bor bo'y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qildik. Istiqlol tufayli yurtimizni jahon hamjamiyati tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati-yu, yoshlarimizning har sohadagi yutuqlari, g'ayrati va azmu shijoati tufayli vatanimizning shonshuhrati olamga yoyildi.

Endilikda mamlakatimizda avtomobilsozlik, neft va gaz kimyosi, neft-gaz mashinasozligi, maishiy elektronika, farmasevtika, yuqori texnologiyalarga asoslangan oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati, raqamli texnologiyalar kabi soha va tarmoqlarga asos solingani va ularni bugun millatimiz tayanchi va suyanchi hisoblangan o'g'il-qizlarimiz boshqarayotgani "Biz kecha kim edig-u, bugun kim bo'ldik?" degan savolning aniq javobi emasmi?!

Yurtimizda kon-metallurgiya sanoati ham yil sayin taraqqiy etmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O'zbekiston metallurgiya kombinati hamda "Navoiyuran" davlat korxonasi mamlakat iqtisodiyotida katta o'rin tutadi.

Mustaqillik yillarida rangli metallar, jumladan

oltin ishlab chiqarish keskin oshdi. "O'zmetkombinat" Ajda so'nggi yillarda mamlakatimizda ham eng yirik bo'lgan Quyuv-prokatlash majmuasini qurish investitsion loyihasining amalga oshirilayotganligi barchaning e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Yaqinda bu majmuaning birinchi navbati ishga tushirilishi kutilmoqda. Majmua to'liq ishga tushganidan so'ng kombinatimizda ishlab chiqarish ikki baravarga oshadi.

Bularning barchasi mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik – eng ulug', eng aziz bayramimiz. Bu kun xalqimizning asriy orzusini, tenglar ichra teng bo'lish huquqini yuzaga chiqargani, milliy o'zligimiz, qadimimiz va qadrimizni tiklagani bilan ulug' va mo'tabar.

**Hasanboy SHOKIROV.**

## PO'LAT ZOLDIRLAR

# ISHLAB CHIQRARISH QUVVATI OSHIRILMOQDA

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini yuksaltirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash – modernizatsiya va rekonstruksiya qilish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ishlar bosqichma-bosqich olib borilayotganligi, loyihalarining tizimli ijrosi natijasida ko'zlangan maqsadga erishilmoqda. Zero amalga oshirilayotgan ishlar mazmun-mohiyatiga ko'ra, mamlakatimiz iqtisodini yanada mustahkamlash, xalqimiz turmush darajasini yuksaltirishdek ezguliklarga xizmat qilmoqda.

Kombinatimizda ham mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar e'tiborga molik. Jumladan Zoldir prokatlash bo'linmasida bu borada keng hajmli ishlar olib borilayapti. Ma'lumki, kombinatimizda import o'rnini bosuvchi, konchilik sanoatida ishlab chiqarish jarayonida eng kerakli bo'lgan po'lat zoldirlar ishlab chiqarish mustaqillikning dastlabki yillaridan yo'lga qo'yilgan edi. Shundan keyingi yillarda bu mahsulotning turli hajmlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

O'zbekistonning konchilik va metallurgiya hamda sement sanoati korxonalarining po'lat zoldirlarga oshib borayotgan ehtiyojini qondirish uchun bo'linmada bu mahsulotlarni ishlab chiqarishni ikki baravardan ham oshirib, yiliga 400 ming tonnagacha mahsulot tayyorlash bo'yicha keng hajmli ishlar boshlab yuborilgan. Avvaliga bo'linmadagi 1-qizdiruv pechida rekonstruksiya amalga oshirildi. Shundan so'ng bo'linmada yiliga 250 ming tonna sifatli po'lat zoldirlar ishlab chiqarila boshlandi. Mahsulotlar ishlab chiqarish

oshishi bilan birga ularning tannarxi ham arzonlashtirildi.

Endilikda Zoldir prokatlash bo'linmasida ishlab chiqarishni yanada oshirish bo'yicha investitsion loyiha amalga oshirilmoqda. Bu loyihaning asosiy maqsadlaridan biri Respublika kon-metallurgiya sanoatini rivojlantirish, shu jumladan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining qurilib, ishga tushiriladigan 3- va 4-misni boyitish fabrikalarining yangi quvvatlarini o'zlashtirishdir.

Ayni paytda Zoldir prokatlash bo'linmasi tomonidan yangi jihozlar uchun joy bo'shatish maqsadida "300" prokat stanining ma'naviy va jismonan eskirgan uskunalarini demontaj qilish ishlari yakunlanmoqda. Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish ikki bosqichda olib boriladi.

Amalga oshirilayotgan modernizatsiya loyihasining birinchi bosqichi davom etmoqda. U "O'zmetkombinat" Ajga po'lat zoldirlarni ishlab chiqarishni 250 ming tonnadan 400 ming tonnagacha oshirish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich 2027-2028-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Bu bosqichdan so'ng bo'linmaning po'lat zoldirlarni ishlab chiqarish quvvati yiliga 500 ming tonnaga yetkaziladi.

Bu loyiha ishlari amalga oshirilganidan so'ng nafaqat Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining, balki Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ham po'lat zoldirlarga oshib borayotgan ehtiyojlari qoplanadi. Demak, mamlakatimizning qimmatbaho rangli metallar, ayniqsa, oltin ishlab chiqarish

sanoatining yanada samarali ishlashi ta'minlanadi.

Zoldir prokatlash bo'linmasi investitsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish bilan birga zimmalaridagi reja-topshiriqlarni ham o'z vaqtida bajarib kelmoqda. Shu bilan birga prokatchilar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni jahon andozalariga mosligi, chiqitsiz va xaridor-girgiligiga katta e'tibor qaratishmoqda.

O'tgan oyda bo'linmada 21 400 tonna o'rniga 22 367 tonna prokat mahsulotlari ishlab chiqarilib, reja 104,5 foizga bajarildi. Joriy yil boshidan buyon yakunlangan 7 oyda esa 142 723 tonna mahsulotlar ishlab chiqarildi. O'sish sur'ati o'tgan yil shu davriga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi.

**Diyor ZULFIQOROV.**





## YANGI O'ZBEKISTON QURILISHINING MUHIM ASOSLARIDAN BIRI

**Bugungi kunda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Bu illatlar mamlakatlarning samarali ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish O'zbekistonda davlat xizmati tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishiga aylandi.**

So'nggi yillarda mamlakatimizda bu boradagi faoliyatning aniq huquqiy asoslarini, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlarini, jumladan, ushbu vazifalar uchun mas'ul organlar tizimini belgilab beruvchi qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Umuman olganda, mamlakatimizda qonunchilik bazasi sezilarli darajada takomillashtirildi, bundan tashqari, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va javobgarlikni ta'minlashga qaratilgan bir qator muhim qonun va hujjatlar qabul qilindi.

Joriy yilning 5-iyun kuni O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib, unda asosiy e'tibor davlat organlari va davlat tashkilotlari xodimlari faoliyati bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish mexanizmlariga qaratilgan. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun, birinchi navbatda, korrupsion holatlarni yuzaga keltiruvchi manfaatlar to'qnashuvi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Qonunda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan: qonuniylik, fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat va davlat qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffof-

lik, ob'ektivlik, korrupsiyaga toqatsizlik.

Manfaatlar to'qnashuvi davlat organlarida korrupsiya holatlarining boshlanishi hisoblanadi. Bu hujjat esa manfaatlar to'qnashuvi holatlarini kamaytirish va mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarni faollashtirishga xizmat qiladi.

Manfaatlar to'qnashuvi taqiqlanganiga qaramay, ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarda siz jamoatchilikning noroziligiga sabab bo'ladigan holatlarni ko'rishingiz mumkin edi. Bu borada avval amaldagi qonunchilikda hech qanday huquqiy oqibatlar mavjud emasligi, ya'ni huquqiy asos yo'qligi sababli, bunday vaziyatlarni bartaraf etishda muammolar yetarli edi. Endilikda

yangi qonunning qabul qilinishi bilan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'shliqlar bartaraf etilib, muayyan tartibga solish mexanizmlari belgilandi.

Qonunga ko'ra, xodim o'z xizmat vazifalarini yoki mansab vakolatlarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'yimasligi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvdagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbarini yoki maxsus bo'linmani xabardor qilishi shart. O'zining bevosita bo'ysunuvdagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi kerak.

Albatta, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurash har qanday davlat uchun qiyin vazifa bo'lib, natija ko'pincha unga qanday yondashuvga bog'liq. Umuman olganda, O'zbekistonda bu boradagi harakatlar dasturi yaxshi asos va huquqiy bazaga ega. Ammo bu korrupsiyani yo'q qilish yoki uni minimal darajaga tushirish uchun yetarli bo'lmaydi. Bu illatga qarshi kurashda davlat va jamiyat birlashgandagina manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya muammolariga barham berish mumkin. Binobarin, biz kuch va salohiyatimizni ushbu mas'uliyatli, murosasiz kurashga safarbar qilishimiz lozim. Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashishda global tashabbuslarni, yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ularda faol ishtirok etish barchamizning burchimizdir.

**R. GARAYEV,**  
"O'zmetkombinat" AJ  
Boshqaruvi raisining birinchi  
o'rinbosari – ijrochi direktor.



## O'ZBOSHIMCHALIK BILAN EGALLAB OLINGAN YERLARNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI BELGILANDI

## AHOLINING MUAMMOLARIGA YECHIM TOPILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev "O'zboshimchilik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Ushbu Qonun bilan yurtimizdagi 10 milliondan ortiq aholining muammolariga yechim topiladigan bo'ldi.

Qonun 6 ta bob va 35 ta moddadan iborat bo'lib, unda quyidagi yer va mulklarga nisbatan huquqlar e'tirof etilmoqda:

1) 2018-yil 1-may kuniga qadar fuqarolar yakka tartibdagi uy-joy qurgan holda o'zboshimchilik bilan egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

2) 2018-yil 1-may kuniga qadar fuqarolar va tashkilotlar tomonidan hujjatda ko'rsatilgan maydondan ortiqcha egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

3) "bir martalik aksiya" doirasida huquqlarni e'tirof etish oxiriga yetmagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

4) 2021-yil 8-iyungacha qadar tuman (shahar) hokimi qarori bilan ajratilgan, lekin viloyat hokimi yoki Xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanmagan yer uchastkalariga;

5) bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar-joylar hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

6) kichik sanoat zonalariga 2020-yil 9-martgacha joylashtirilgan tadbirkorlarning yer uchastkasiga;

7) davlat orderi bilan xususiyashtirilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasiga;

8) hokim qarori bilan mulk huquqi e'tirof etilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasiga.

Qonunda huquqlarni e'tirof etishning asosiy shartlari ham aniq belgilangan. Masalan, yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan bo'lishi, yer bo'yicha nizo bo'lmasligi, bosh reja talablariga zid emasligi va boshqa omillar hisobga

olinadi.

Huquqlarni e'tirof etish hududlar bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. O'zboshimchilik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga taalluqli ma'lumotlarni va hujjatlarni kelishish Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizimga 15 ta vakolatli tashkilot ham tegishli ma'lumotlarini kiritadi.

To'plangan hujjatlarning to'liqligi va qonuniyligi viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tekshirib chiqiladi. Ularning natijalari mahalla burchaklari, Kadastr agentligining sayti orqali jamoatchilikka e'lon qilinadi. Ijobiy xulosa qabul qilingan fuqarolarga SMS-xabarnoma yuboriladi. U asosida bir martalik to'lovni amalga oshirganlarga har chorakda Xalq deputatlari viloyat kengashi qarori bilan huquqlar e'tirof etiladi.

Prokuratura, ichki ishlar, agroinspeksiya, ekologiya, kadastr organlari qonunni amalga oshirishda davlat nazoratini o'rnatadi. Shuningdek, qonunda jamoatchilik nazoratiga alohida e'tibor qaratilgan. Ya'ni, Xalq deputatlari tuman kengashlari qarori bilan har bir mahallada jamoatchilik guruhlarini tashkil etiladi. Bu guruhlarga mahalla joylashgan okrugdan saylangan tuman kengashi deputati, mahalla raisi va



faol fuqarolar kiritiladi.

Turar-joylar, xususiyashtirilgan yoki mulk huquqi e'tirof etilgan bino va inshootlar ostidagi yer uchastkalariga huquqlarni e'tirof etish uchun bir martalik to'lov olinadi. Bu to'lov Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari, Nukus shahri va viloyat markazlarida 3 baravari, shaharlarda 2 baravari va boshqa aholi punktlarida bir baravarini tashkil etadi. Ijtimoiy himoya yagona reestriga kiritilgan va nogironligi bo'lgan shaxslarga chegirma beriladi.

Bir martalik to'lovdan kadastr va adliya idoralari, "O'zbekkosmos" agentligining xarajatlarini qoplanadi. Qolgan mablag'lar tashabbusli budjet tadbirlariga yo'naltiriladi, ya'ni o'sha mahallalarning o'ziga sarflanadi.

Qonun 3 oydan keyin kuchga kiradi, unga qadar joylarda targ'ibot, tushuntirish va tayyorlik ishlari amalga oshiriladi. Qonun 2028-yil 1-yanvargacha qadar amal qiladi.

**Ubaydulla MIRZAYEV,**  
Bekobod tumani adliya bo'limi Davlat  
xizmatlari markazi direktori.



## BOBOLARIMIZ MEROSI – ULUG' QADRIYAT

Islom olamida mashhur ajdodlarimizdan biri, naqshbandiya tariqatining asoschisi bo'lgan Xoja Bahouddin Naqshband milodiy 1318-yilda Buxoro viloyatining Kogon tumani-dagi "Qasri Hinduvon" qishlog'ida tug'ilgan.

Manbalarda u kishining otasi ham bobosi ham Muhammad ismida bo'lgani qayd etiladi. Yoshligida otasi bilan birga kimxobga naqsh solish hunari bilan mashg'ul bo'lgani uchun Naqshband laqabi bilan mashhur bo'lgan. "Bahouddin" so'zi "Dinning nuri" degan ma'noni anglatadi. Bu Xoja Naqshbandga keyinchalik berilgan faxrli unvon.

Tasavvufning mashhur bilimdoni, atoqli sharqshunos Y. E. Bertelsning yozishicha, Bahouddin Naqshband dehqonchilik bilan kun kechirgan, o'z qishlog'ida unchalik katta bo'lmagan yeriga bug'doy va mosh ekar ekan. U uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Qishda qamishlar ustida, yozda esa bo'yra ustida yotib kun kechirgan. Uning uyida hech qachon xizmatkor ham bo'lmagan.

Naqshbandiya tariqatining asl aqidasi – "Dil ba yor-u, dast-ba kor" – ya'ni "Doimo ko'ngling Allohda bo'lsin, qo'ling esa ishda", degan g'oyani ilgari suradi. U o'z qo'l kuchi bilan kun ko'rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga in'om etgan.

Bu ta'limot tarafdorlari tarkidunyochilikka qarshi, boy-zodagonlarning zulm va istibdodiga qarshi bo'lganlar, odamlarni faqat o'z qo'l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat

qilib kun kechirishga chaqirganlar. Bu ta'limot boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinxo'rlikni, ijtimoiy zulm, istibdodni qat'iy qoralaydi.

Naqshbandiya ta'limoti Amir Temurning mo'g'ullar iste'losiga qarshi kurashida, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga intilishida, temuriy davri madaniy yuksalishida katta ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Tabarruk ajdodimiz Hazrati Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan Naqshbandiya ta'limoti Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida juda katta o'rin egalladi.

Xoja Bahouddin Naqshbandni Markaziy Osiyo xalqlari juda yuksak qadrlaydilar. Uning poklik, to'g'rilik, mehr-shafqat, adlu insof, imon, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg'or umumbashariy fikrlari davrimizga hamohang bo'lib, kelajak uchun xizmat qiladi.

Hozirgi tahlikali dunyoda, turli nizo va adovatlar hali beri barham topmagan murakkab bir vaziyatda Naqshband bobomizning – milati, tili va dinidan qat'iy nazar inson zotini aziz va mukarram bilish, o'zaro mehr-oqibat, shafqat va muruvvat muhitini qaror toptirish, yetim-yesirlarning boshini silash, muhtojlarga yordam berish kabi ezgu da'vatlari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Abdusalom ABDULLAYEV.**



## IMOM TERMIZIY TAVALLUDINING 1200 YILLIGI KENG NISHONLANADI

Muqaddas islom dini ilmlari rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk olim, vatandoshimiz Imom Abu Iso Muhammad Termiziyning ulkan ilmiy merosini yanada chuqur o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib etish maqsadida joriy yil oktabr oyida O'zbekistonda Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlanadi.

"Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Prezident Qarori 15-avgust kuni qabul qilindi.

Tadbirni yuqori saviyada nishonlash uchun Imom Termiziyning "Ash-Shamoil al-Muhammadiyya" va "Sunani Termiziy" asarlarini moturidiylik aqidasi va hanafiylik mazhabiga tayangan ko'p jildlik akademik tarjima va sharhi tayyorlanadi hamda nashr etiladi.

2024-yil oktabr oyida Toshkentda "Islom – tinchlik va ezgulik dini" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda konferensiya doirasida Termiz shahrida "Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkaziladi.

2024-yil sentyabr-oktabr oylarida Termiz davlat universiteti va O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida "Termiziy allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi: o'tmish va bugun" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda Imom Termiziy hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ilmiy maqolalar tanlovi o'tkaziladi.

Shuningdek, O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan imom-xatiblar va diniy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Imom Termiziy asarlari bo'yicha hadislar bilimdoni" tanlovi o'tkaziladi.

### BUXORODAGI BAHOUDDIN NAQSHBAND MAQBARASI



### 31-AVGUST – QATAG'ON QURBONLARINI YOD ETISH KUNI

## BUGUNGI VA KELAJAK AVLOD HECH QACHON UNUTMAYDI

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan uning ma'naviy hayotida yangi – uyg'onish, o'zlikni anglash davri boshlandi. Tarixiy haqiqat va adolatni tiklash bo'yicha ishlar, eng avvalo, hurriyat yo'lida jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratildi.

Istiqlolimizga 33 yil bo'layotgani bilan bobolarimiz 100 yillar oldin bunga harakat qilgan. 100 ming vatandoshimiz qatag'onga uchrab, 13 ming nafari shafqatsiz otib tashlangan. Katta salohiyatga ega yetakchilar, olimlar, adiblar, shifokorlar, o'qituvchilar qatag'on qilingan. Ular xalqimizning eng sara vakillari edi, eng katta qahramonlarimiz, millatning xazinasi bo'lishgan. 2–3 tadan til bilganlar.

Mustabid tuzumga millat ko'zini ochadigan, unga o'zligini tanitadigan ziyoli insonlar kerak emas edi. Ularning aybi – buyuk bo'lgani edi.

El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo'lida, xalqimizning qadr-qimmatini, or-nomusini, milliy



an'alarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo'lganlar xotirasi minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi.

Yurtimizda har yili 31-avgust – "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" sifatida keng nishonlab

kelinmoqda. Istiqlol yillarida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi barpo etildi, "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta'lim muassasalari qoshida uning bo'limlari tashkil etildi. Qatag'on qurbonlari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi ulug' ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlangan muhtasham haykallar, muzeylar bunyod etildi. Siyosiy qatag'on yillarida nohaq qurbon bo'lgan yurtdoshlarimizning qoldirgan merosini o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy va hujjatli asarlar yaratilmoqda.

Mustabid tuzum davrida million-million begunoh insonlarning umri xazon bo'lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo'lib, qancha-qancha go'daklar yetim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi.



Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmasi ishga tushganligiga 50 yil to'ldi

## KORXONA TARIXIDA YANGI BOSQICH

O'tgan asrning 70-yillari "O'zmetkombinat" AJ faoliyatida alohida e'tiborga molik davr hisoblanadi. Bu davrda zavodda katta qurilishlar boshlangan. O'zbekiston metallurgiya zavodi shu davrga kelib loyiha quvvatida ko'rsatilgan po'lat va prokat ishlab chiqarishni 5-6 marotabaga oshirib yuborgan. Shunday bo'lsada Respublikamizda prokat mahsulotlariga talab katta edi. Shu sababdan o'sha davrdagi Respublika rahbari Sharof Rashidov Moskvaga, ittifoq mamlakati rahbariyatiga va Qora metallurgiya vazirligiga O'zbekiston metallugiya zavodini kengaytirishga ruxsat berishlarini iltimos qilib murojaat qiladi. Respublika va zavod rahbarlarining sa'y-harakatlari bilan Bekobodda, O'zbekiston metallurgiya zavodining ishlab chiqarishini kengaytirish uchun katta qurilishlarga ruxsat olinadi. Korxonada yangi bir bosqich – zavodni tubdan qayta qurish va yangi sexlarni ishga tushirish davri boshlandi. Ta'bir joiz bo'lsa, yangi zavod quriladigan bo'ldi.



### DASTLAB XIMICH KORXONASI QURILADI

Bu masala ijobiy hal etilgach Qora metallurgiya vazirligi Elektrda po'lat eritish va yangi prokat sexlarini qator yordamchi tarmoqlar bilan qurishdan oldin Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish majmuasi qurishga ko'rsatma beradi. Shu paytga kelib mamlakatga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish dolzarb masalaga aylanganligi uchun sobiq ittifoqda 5 ta bir xil loyihada sirlangan idishlar korxonasi qurilishi rejalashtirilgan edi. Shu korxonalaridan biri bizda – Bekobodda quriladigan bo'ldi.

Bu korxonada yiliga 25 ming tonna sirlangan idishlar ishlab chiqarish loyiha quvvatiga ega bo'lib, unda 2000, shu jumladan 1900 nafar ayol ish bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgandi. XIMICH sexi qurilishi munosabati bilan zavodimizning metallurgiya qismi qurilishi biroz orqaga suriladi.

Qurilishning o'ziga yarasha ancha qiyinchiliklari bor edi. Chunki hamma narsa – loyiha, texnika va dastgohlar, mablag' ajratish kabilar yuqorida, Moskvada hal qilinardi. Bekobodlik metallurklar qiyinchiliklarni yengib o'tib, respublikadagi bosh pudratchi tashkilotlar bilan hamkorlikda Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish majmuasi qurilishini boshlaydilar.

1972-yili mamlakatda eng yirik hisoblangan sirlangan po'lat idishlar ishlab chiqarish korxonasi poydevori quyildi. Bu qurilish qisqa muddat ichida qurilib 1974-yilda ishga tushirildi.

### IKKI BOSQICHDA ISHGA TUSHIRILADI

1974-yili uning yiliga 20 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan birinchi navbati ishga tushirildi. 1980-

yilga kelib esa yiliga 5 ming tonna mahsulot tayyorlash quvvatiga ega ikkinchi navbatining qurilishiga yakun yasaldi. Murakkab zamonaviy texnika mutaxassislarni tayyorlashga katta talabchanlik bilan yondoshishni talab qilardi. Xuddi, 40-yillardagidek, yangi sexni qurish va mutaxassislarni tayyorlash uchun korxonaga Magnitogorsk, Novokuznesk, Lisva metallurglari yaqindan amaliy yordam berishdi.

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish (XIMICH) sexi mamlakatda va xorijda ishlab chiqarilgan zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan edi. Korxonada o'lkaning sirlangan idishlarga bo'lgan talabini deyarli qondiribgina qolmay, ko'plab kishilar ishli, uyli bo'lishdi.

### QURILISH LOYIHASI NEGA O'ZGARTIRILDI?

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish majmuasini qurib, ishga tushirish mobaynida katta tajriba va malakaga ega bo'lgan metallurklarimiz 1975-yildan boshlab Bekobodda yangi metallurgiya zavodi qurilishiga kirishib ketdilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki bu sanoat

qurilishlaridan tashqari loyihada bu zavodda ishga qabul qilinadigan oilalar va odamlar soniga qarab ijtimoiy ob'ektlar, uy-joy qurilishi belgilangan edi. Odam qancha ko'p bo'lsa uy-joy, maktab, bolalar bog'chasi, poliklinika va boshqalarga shunga qarab pul ajratilardi. O'sha davrdagi zavodimizning kapital qurilish bo'yicha direktor o'rinbosari Rixsivoy Yusupov bu loyihaga o'zgartirish kiritishga mas'ul bo'ladi. Loyihani o'zgartirish uchun bir yil vaqt ketadi. Sababi loyihada bitta oilaning soni o'rtacha ikkita qilib olingan ekan. Bu ittifoq bo'yicha o'rtacha sonni tashkil etardi. O'zbekistonda esa oilalarda o'rtacha olti kishi bor edi. Moskvadagilar bunga ishonishmaydi. Shunda O'zbekistonda oilalarning o'rtacha soni haqida ma'lumotlar to'planib, ular hujjatlashtiriladi. Shundan so'nggina yuqorida loyiha tasdiqlanadi.

Bu qurilishlardan avval zavodimiz kichkina edi. 35 gektar yerni egallagan korxonamizda 2,5 ming kishi ishlardi. Zavod kengayganidan so'ng faqatgina Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexiga 2 ming kishi ishga olinadi. Shuncha kishining oilasiga yarasha XIMICH sexidan tashqari ijtimoiy ob'ektlar, uy-joylar ham quriladi.



## XARIDORLAR E'TIBORINI O'ZIGA TORTADI

Shu oyda Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish bo'linmasining to'liq ishga tushganligiga 50 yil to'ldi. Bo'linmada bugungi kunda 52 nomdagi va 250 dan ziyod turdagi sirlangan po'lat idishlar ishlab chiqarilmoqda. Yillik ishlab chiqarish quvvati esa 3200 tonna mahsulotni tashkil etadi.

"O'zmetkombinat" AJning Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmasida tayyorlanayotgan sirlangan po'lat idishlar bejirimligi bilan xaridorlar e'tiborini o'ziga tortadi. Bu joyda ishlab chiqarilayotgan sirlangan idishlar



dizayni ham rang barangligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham yurtimizda deyarli har bir xonadon oshxonasida XIMICH bo'linmasida ishlab chiqarilgan sirlangan idishlarga ko'zingiz tushadi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda sirlan-

gan idishlarning jahon bozorlaridan mustahkam joy olishiga katta e'tibor qaratilyapti. "O'zmetkombinat" AJ sirlangan po'lat idishlarni Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Moldova davlatlariga eksport qilmoqda. Shuningdek, sirlangan idishlarimiz Yevropa ittifoqi bozorlariga ham kirib borgan. Ulardan Chexiya va Latviya davlatlariga ham sirlangan po'lat idishlarni eksport qilish yo'lga qo'yildi.

Bu XIMICH bo'linmasida ishlab chiqarilayotgan sirlangan po'lat idishlarning sifati jahon

andozalariga to'liq mos kelishini, mahsulot sifatiga talab yuqori bo'lgan Yevropa davlatlarida ham unga bo'lgan ehtiyoj oshib borayotganligini ko'rsatadi.

**Diyor ISMATOV.**





Xalqimiz Mustaqil davlatimizning 33 yilligini shod-u xurramlik bilan kutib olmoqda. O'tgan yillar davomida amalga oshirilgan bunyodkorlik, ichki va tashqi siyosat borasida yurtboshimizning amalga oshirayotgan ishlari bizning kelajakka bo'lgan ishonchimizni yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar hozirgi kunga kelib o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Xalqimiz farovonligi, yashash tarzi yuksalib borayotganligi fikrimizning dalilidir. Yurtimizning qaysi go'shasiga bormang, bunyodkorlik ishlarini ko'rib, qalbingiz to'liqlanib ketadi.

Kombinatimizda ham bu borada katta ishlar amalga oshirib kelinmoqda. E'tibor bergan bo'lsangiz "O'zmetkombinat" AJda asosiy yangiliklar va rivojlanishlar 2017-yildan boshlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev keyingi yillarda kombinatimizga 3 marta tashrif buyurib ko'plab loyihalarni amalga oshirishda shaxsan o'zlari bosh-qosh bo'ldilar. Bu tarixda bo'lmagan yangilik, deb bilaman. Masalan men o'zim shaxsan ularni ko'rmaganman, lekin qilayotgan ishlarini eshitib qoyil qolaman.

Mana o'zingiz o'ylab ko'ring qaysi davlat rahbari yoki yuqori mansab egasi kombinatimiz taqdiri bilan shu darajada qiziqqan? Hech kim!!!

Davlat rahbari kelib topshiriq berib ketgandan keyin yangidan yangi sexlar ishga tushirilmoqda. Masalan Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexi ochildi, Quyuv-prokatlash majmuasining qurilishi avjida, Zoldir prokatlash bo'linmasida modernizatsiya ishlari olib borilmoqda. Bularning hammasi xalqimizning farovon yashashi uchun qilinayotgan muhim qadam deb hisoblayman.

Men kombinatda ko'p yillardan beri mehnat qilib kelmoqdaman. Yurtimizdagi eng yirik ishlab chiqarish korxonalaridan birida ishlashimdan faxrlanaman.

## MUSTAQILLIK ULUG' NE'MAT



40 yillik hayotimni bag'ishlagan bu korxonam umrimning ajralmas qismiga aylangan desam ham bo'laveradi.

20 yoshimda Marten sexida ish boshlaganman. Birinchi kun ishga kelganimda olov singari qaynab turgan po'lat eritmalarini ko'rib meni vahima bosgan. O'sha vaqtda martendagi po'lat erituvchi va quyuvchilarning ishlarini kuzatib mehnatlari qanchalik murakkab ekanligini ko'rganman. O'ta yuqori darajadagi issiqlikda ishlab po'lat quymalarini tayyorlashni a'lo darajada bajarishning o'zi bir qahramonlik, deb o'ylayman. Buni marten sexida ishlaganlar yaxshi biladilar.

Endilikda Metall konstruksiyalar bo'linmasida chilangar-ta'mirlovchi vazifasida ishlab, kombinat yutuqlariga hamkasblarim qatorida o'zimga yarasha ulush qo'shayotganimdan xursandman. Umuman olganda metallurg ekanligimdan doim faxrlanganman. Chunki bizning korxonada doimo



yangidan-yangi sexlar ishga tushurilib, yangi mahsulotlar ishlab chiqarilyapti. Qolaversa men va izimdan borgan farzandlarim metallurklar jamoasida mehnat qilib niyatlarimizga yetayapmiz.

**Ashurali SULTONOV,**  
Metall konstruksiyalar bo'linmasi  
chilangar-ta'mirlovchisi.

## BARCAGA BIRDEK TEGISHLI

Kishi hayotda har xil vaziyatga tushishi mumkin. Insonning kutilmaganda biror-bir falokatga duch kelishi ehtimoldan xoli emas. Jumladan, avtohalokat ro'y berishi, yong'in sodir bo'lishi... Ko'pchilik shunday vaziyatlarda nima qilishni, qanday harakatlanishni bilmay, esankirab qoladi.

Buni hech kimga ravo ko'rmaymiz, masalan, sizning ish joyingizda kutilmaganda yong'in kelib chiqdi, deylik. O'zingizga kelib, haqiqiy holatni anglab yetguningizgacha olov kattalashib, xavfli ko'rinish oladi. Shunday holatda xona burchagidagi birlamchi yong'in o'chirish moslamasiga ko'zingiz tushdi. Turgan gapki, uni olib, ishlatishga urinasiz. Lekin undan foydalanish bo'yicha zarur ko'nikmaga ega emassiz. Natijada mazkur moslama siz uchun oddiy matohga aylanadi. "Tilsiz yov" esa o'zining yovligini qilishda davom etadi.

Shuning uchun bunday paytda qanday harakatlanishni, falokat sodir bo'lganda yong'in o'chirish moslamalaridan foydalanishni bilish hammamiz uchun juda muhimdir. Ayni paytda favqulodda vaziyatlar hamda yong'in xavfsizligi targ'ibot-tashviqot tadbirlarida ham ana shu jihatlarga katta e'tibor qaratilmoqda.



"O'zmetkombinat" AJ ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari korxonada va tashkilotlar, maktabgacha ta'lim muassasalari ishchi-xodimlarini yong'in o'chirish mashinalari, texnik asbob-uskunalar, birlamchi yong'in o'chirish vositalarini ishlatish tartibi, foydalanish usullari bilan tanishtirmoqdalar.

Bu uchrashuvlarda yong'in xavfsizligi xodimlari tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalari rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilmoqda. Shu bilan birga, ishtirokchilar e'tiboriga yong'inlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bilan bog'liq, holatlar amalda namoyish etilmoqda.

**Bobur SULXONOV,**  
"O'zmetkombinat" AJ  
OYOXTTEB inspektori, katta  
leytenant.



## SOYA-SALQINDA YAYRAB HORDIQ CHIQRISHDI

Har bir faslning o'ziga xos tarovati va go'zalligi bor. Lekin yozning gashti o'zgacha. Ayniqsa, bolajonlar uchun intiq kutiladigan bu g'aroyib faslning unutilmas kechinmalari ularga bir dunyo hayrat va hayajon bag'ishlaydi.

Yurtimizda yoshlarning bilimli, zukko, shu bilan birga sog'lom voyaga yetishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yozning jazirama issiq kunlarida soya-salqin oromgohlarda bolajonlarimiz yayrab hordiq chiqarishmoqda.

Xususan, bu yil yozda "O'zmetkombinat" AJ va kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi Sirdaryo bo'yida joylashgan "Sohil" bolalar oromgohida metallurklar farzandlarining maroqli va mazmunli dam olishlarini tashkil etdi.

Bu oromgohda kombinat ishchi-xodimlarining 500 nafardan ziyod farzandlari bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazishdi.

"Sohil"da bolalar uchun turli madaniy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, milliy o'yinlar, viktorinalar tashkil etildi. Butun mavsum mobaynida bolalar har kuni badantarbiya mashqlari qilib, sun'iy hovuzda cho'milib, sport bilan shug'ullandilar.

Yoz kunlarini tengdoshlari va yangi do'stlari davrasida o'tkazgan bolajonlarning quvonchi ham cheksiz. Bu esa, ularning yaqinlashib kelayotgan yangi o'quv yilini har jihatdan kuchga to'lib, zavq bilan boshlashlariga katta imkoniyat yaratayotganini ko'rsatadi.

**Vali KARIMOV.**





# FIRIBGARLARDAN OGOH BO'LING!

## INSONIY JAMIYATGA BEGONA

Har bir inson uchun halollik, samimiyat, va'da-ga vafo eng oliy xususiyatlar bo'lishi kerak. Yolg'on va firibgarlik, insoniy jamiyatga begona bo'lgan fazilatlaridir.

Muqaddas dinimiz ham insonlarni aldashi va firibgarlikni mutlaqo taqiqlaydi. Yolg'on va firibgarlik har ikki dunyoda ham inson uchun gunohlarning eng yomonlari hisoblanadi.

Achinarlisi buni deyarli hamma bilsada firibgarlik jinoyati soni kamayib qolayotgani yo'q. Qolaversa, taraqqiyot yuksalgani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari qayd etilmoqda. Axborot texnologiyalari, internet orqali amalga oshirilayotgan firibgarliklar ham ko'p uchrayapti.

## VIRTUAL FIRIBGARLAR



Hozirgi kunda firibgarlarning internet tarmog'idan soxta telefon raqamlari orqali fuqarolarga qo'ng'iroq qilish holatlari kuzatilmoqda. Bunda firibgarlar o'zini bank xodimi sifatida tanishtirib, fuqarolarning ishonchiga kirishga urinmoqda.

Bundan tashqari, firibgarlar telegram ijtimoiy tarmog'ida soxta kanal orqali fuqarolarga onlayn kreditlar taklif etib, ularning bank kartalariga oid ma'lumotlarini qo'lga kiritish orqali bank kartasidagi pul mablag'larini o'zlashtirish holatlari kuzatilmoqda.

Shuningdek, firibgarlar sizga telefon qilib o'zlarini "CLICK evolution" kompaniyasining xavfsizlik xizmati xodimi deb tanishtirishadi va sizning plastik kartangizga hozirgina xakkerlik hujumi bo'lganligini aytishadi. Keyin, ular biz sizga SMS kod yubordik shu kodni aytasangiz plastik kartangizga himoya o'rnatib beramiz, deyishadi. Kodni aytgan odam esa plastik kartasidagi barcha pul-larini o'g'irlatib qo'rganini keyin sezib qoladi.

So'nggi vaqtlarda telegram orqali fuqarolarga Majburiy ijro byurosidan qarzi borligi va uni plastik kartochkasi orqali to'lashi mumkinligi haqida xabarlar kelmoqda. "Ogoh bo'ling! Shaxsiy raqamlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali kelgan qarzdorlikni bartaraf qilish haqida har qanday xabarlar feyk hisoblanadi va Majburiy ijro byuro-si tomonidan yuborilmaydi.



Qarzdorlik to'g'risidagi xabarlar qarzdorlarga faqatgina SMS xabar orqali hamda MIB ko'rinishidagi akkauntndan yuboriladi.

## YOLG'ON XABARLARGA ALDANMANG!

Firibgarlar telefoningizga SMS tariqasida yoki telegram kanallaridan sizga katta aksiyadorlik kompaniyasidan yutuq chiqqanini ayti-shadi va pul yoki yutuqni plastik kartangizga yuklab olishingiz uchun sizga saytga kirish uchun havola yuborishadi. Agar siz mazkur havola orqali saytga kirsangiz va plastik karta raqamlarini tersangiz bor pulingizdan mahrum bo'lasiz.

Navbatdagi o'g'irlik, agar siz internet do'konlar orqali biror mahsulotingizni sotmoqchi bo'lib reklama qo'ysangiz, masalan "OLX.uz" ilovasi orqali biror moddiy qiymatdagi buyumni sotmoqchisiz. Sizga o'zlarini xaridor sifatida tanishtirib mahsulot pulini plastik kartangizga o'tkazib berishlarini va mahsulotni pochta orqali yuborishingizni iltimos qilishadi. Shu o'rinda ular sizga telefoningizga kelgan maxfiy SMS kodni aytganingizdan keyin pul o'tkaza olishlarini uqtirishadi. Bunday holatda bilingki bular firibgarlar va aslo maxfiy kodni ayta ko'rmang.

## E'LON XIZMATLARIDA SOXTA XARIDORLAR



Bugun ijtimoiy tarmoqlar orqali xayriya yordami ko'rsatilayotgani yoki moddiy yordam berish haqida tez-tez yolg'on xabarlar tarqalmoqda. Ushbu e'lonlar orqali davlat tashkilotlarining rasmiy veb saytlariga o'xshash soxta havolalar ilova qilinayapti. Mazkur havolaga kirish orqali fuqaroning nomida bo'lgan bank plastik kartasidagi pul mablag'lar yo'qoladi. Aniqrog'i, pullar firibgar va o'g'rilarning hisobiga borib tushadi.

Siz aziz metallurglardan shunday "feyk-yolg'on" xabarlariga aldanmaslik, shubhali veb-saytlar havolalariga kirmaslik, shaxsiy va muhim ma'lumotlarni begona shaxslarga bermaslikni so'raymiz.

Bu firibgarlarning eng yomon tomoni hozircha bundaylarning kimligini topishning imkoni deyarli yo'q.

## LAQMALARGA QO'YILGAN TUZOQ

Yana ishga, o'qishga kiritib qo'yaman, deb firibgarlik qilayotganlarga ham aldanib qolmang. Odatda bunday va'da

## "MOLLARINGIZNI BOTIL YO'L BILAN YEMANGLAR!"

Muqaddas Islom dinimizda firibning har qanday turi harom bo'lib, man qilingan. Chunki firibgarlikda bir tomon foyda topsa-da, ikkinchi tomon zarar ko'radi. Dinimizda esa zarar berish ham yo'q, zarar ko'rish ham yo'q. Alloh Qur'oni Karimda: "Mollaringizni o'zaro oralaringizda botil yo'l bilan yemanglar", - degan. Botil yo'lga barcha harom ishlar: aldov bilan tortib olish, o'g'irlik, qimor, ribo, sudxo'rlik, poraxo'rlik kirib ketadi.

Biz farzandlarimizni maqsadga kimnidir aldash yoki qaysidir firibgarga murojaat qilish bilan emas, mushkul va murakkab ko'rinsa-da, halol mehnat orqali erishishni targ'ib qilishimiz, farzandlarimizni hayotga to'g'ri yo'naltirishimiz lozim.

berganlar avvalo sizni aldab pulingizni olishga harakat qiladi.

Ana shunday ishga kiritib qo'yaman deganlardan biri bo'lgan A. Dilshodovanning jinoyi ishi joriy yilning 22-fevral kuni jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida ko'rib chiqildi. Bekobod shahar Tibbiyot birlashmasi kichik xodimasi bo'lgan bu ayol ishga joylashtirib qo'yaman deb "sodda"larning pulini aldab oladi. Sudda firibgar shahar Tibbiyot birlashmasiga ishga olib kirib qo'yishi evaziga olgan pulini o'z ehtiyoji uchun ishlatganini, laqmalarni ishga kiritishga harakat ham qilmaganligini tan oladi.

Mana hamshahrimiz bo'lgan firibgar o'zi aybini yengillatish uchun sudda bor gapni yashirmay aytib berdi. Shunday ekan pul evaziga qaysi sohaga bo'lishdan qat'iy nazar ishga yoki o'qishga kiritib qo'yaman deb yolg'on va'da beruvchilarga ishonib qolmang.

So'nggi yillarda, asosan kuz-qish mavsumi boshlanishida aholi orasida, ayniqsa, tumanlarda maxsus-formali kiyim-bosh kiyib yurgan yoki shu kiyimga juda o'xshash kiyimdagi shaxslar o'zlarini "davlat yong'in nazorati organi xodimi" sifatida tanishtirib fuqarolardan yillik majburiy tarzda soliq yoki kommunal to'lov sifatida noqonuniy pul yig'ish holatlari kuzatilmoqda.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, yong'in va uning oldini olish bilan bog'liq biron bir to'lab borilishi shart bo'lgan kommunal to'lov yoki soliq qonunchilikda mavjud emas.

Firibgarlar ma'lum bir sohani egallab, bilim-ga ega bo'lishadi. Shuningdek, ularda aktyorlik qobiliyati ham bo'ladi. Shu sababli firibgarlik aqli jinoyatlar turiga kirib, uni aql-zakovatli insonlar sodir etadi.

Biz esa doimo o'ziga hushyor va huquqiy hamda moliyaviy bilimlarga ega bo'lishga harakat qilishimiz shart. Aks holda firibgarlar tuzog'iga tushib qolishimiz ehtimoli katta bo'ladi.

I. ZULFIQOROV.





## BUTUN OYLIKNI BITTA QILIB OLSA BO'LADIMI?

**Mehnat haqidan avans olmasdan oylikni bitta qilib olish mumkinmi?**

**K. Nodirov.**

Mehnat kodeksining 253-moddasiga asosan xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, o'n olti kundan ko'p bo'lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo'lingan holda to'lanadi. Ko'pchilik mazkur normani noto'g'ri tushungan holda ish haqi to'lash muddati jamoa shartnomasida har

oyda bir marta to'laydigan qilib belgilasa bo'ldi ekan degan noto'g'ri tushunchaga boradi moddani oxirigacha o'qib chiqmasdan.



Mazkur moddada xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, o'n olti kundan ko'p bo'lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo'lingan holda (bo'nakda va qolgan qismi miqdorida) to'lanadi deb belgilangan. Ya'ni xodimga avans to'lanishi shart hisoblanadi.

Agar xodimning o'zi oyda bir marta mehnat haqimni olaman deb ariza yozib bersa, qanday bo'ladi? deb so'rashingiz mumkin. Bu yerda ham xodim ariza yozsa ham, yozmasa ham ahamiyati yo'q ish beruvchi xodimga avans to'lashi shart. Agar to'lamagan taqdirda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 49-moddasiga asosan javobgarlikka tortiladi.

## O'RINDOSH XODIMLARGA TA'TIL BERILADIMI?

**O'rindosh xodimlar ta'tilga chiqishi qanday tartibda amalga oshiriladi?**

**I. Shokirov.**

Mehnat kodeksining 216-moddasiga asosiga ko'ra barcha xodimlar, shu jumladan o'rindoshlik asosida ishlaydigan xodimlar har yilgi mehnat ta'tiliga chiqish huquqiga ega. Bu yerda ichki o'rindosh ham, tashqi o'rindosh ham nazarda tutilgan. Ko'plab tashkilotlarda ichki o'rindoshlarga ta'til berilmasligi holati ko'zga tashlanadi. Bu noqonuniy hisoblanadi. Sababi o'rindoshlik ishi asosiy ishidan bo'sh vaqtda bajarilib Mehnat kodeksining 435-moddasi bilan alohi-



da mehnat shartnomasi tuziladi. Shuningdek, o'rindoshlik asosida ishlovchi xodimlarga ham Mehnat kodeksining 220, 401-moddalari belgilangan har yilgi qo'shimcha ta'tillar ham beriladi.

Ta'tilga chiqqanda moddiy yordam puli ham Mehnat kodeksining 446- va 438-moddalariga asosan korxonaning jamoa shartnomasi yoki boshqa ichki hujjatlarida o'rindoshlik asosida ishlovchi xodimlarga berish ta'qiqlanmagan bo'lsa, berilishi lozim.

## PULINI OLIHIM MUMKINMI?

**Pulga muhtoj bo'lib qolganligim uchun 8 yillik foydalanilmay kelgan ta'tillarimning pulini kompensatsiya qilib olsam bo'ladimi?**

**F. Eshonqulov.**



Mehnat kodeksining 234-moddasiga asosan mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga barcha foydalanilmagan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari uchun pulli kompensatsiya to'lanadi. Bu yerda e'tibor qilinishi kerakki, shartnoma bekor qilinganda deyilmoqda. Ya'ni qachonki mehnat shartnomasi bekor qilinganda xo-

dimga foydalanilmagan ta'tillari uchun pullik kompensatsiya to'lanadi. Ya'ni foydalanilmagan ta'tilni olishda xodimning moddiy ahvoli rol o'ynamaydi. Biroq bu yerda bir yo'l orqali xodimga o'sha foydalanilmay qolib ketgan ta'til pullarini to'lab berish mumkin. U ham bo'lsa xodimni ishdan bo'shatib, keyin qaytib ishga olish orqali.

## NEGA HAMMAGA HAM IMTIYOZ QO'LLANILMAYDI?

**Ma'lumki avtomashinada jarimaga tushganlar 15 kun o'tmasdan jarimani to'lasalar 50 foizlik chegirma beriladi. Biroq ba'zilar uchun bu imtiyoz qo'llanilmas ekan. Buning qanday sababi bor?**

**A. Ernazarov.**

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 332-prim 1-moddasida bu savolning javobi yozilgan. Unga asosan, jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan (Ya'ni, jarimani 15 kunda to'lasa 50, o'ttiz kunda to'lansa 30 foizlik chegirma bilan to'lash) tartibi quyidagi hollarda qo'llanilmaydi:

- transport vositasini alkogolli ichimlik, giyohvand modda yoki o'zgacha tarzda mast holda boshqarganda;
- kema haydovchilari kichik hajmdagi kemalarni alkogolli ichimlik yoki giyohvand modda ta'siridan mast holdagi shaxslarga topshirganda yoki uning o'zi shunday holatda boshqarganda;
- transport vositalari haydovchilari alkogolli ichimlik yoki giyohvand modda ta'siridan mast yoki mast emasligini belgilangan



tartibda aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlaganda;

- alkogolli ichimlik yoki giyohvand modda ta'siridan mast bo'lgan haydovchilarning yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishiga yo'l qo'yilganda;

- jarima solish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda yoki protest bildirilganda;

- xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganda.

Mana shunday holatlarda jarima to'lashda chegirma qo'llanilmaydi.

## KORRUPSIYA HAQIDA XABAR QILGANLAR MUKOFOTLANADIMI?

Hech kimga sir emaski, jamiyatimizda eng yomon illat bo'lgan korrupsiya bo'layotganligi haqida ba'zan eshitib qolamiz. Uning oldini olish uchun tegishli idoralarga xabar qilganlarga mukofot beriladi, deb eshitdik. Shu haqda ma'lumot bersangiz?

**K. Esonov.**

Korrupsiya haqida Bosh prokuratura, DXX, IIV, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorida bu haqida belgilangan. Ushbu qaror asosida korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari-



dan yigirma besh baravari miqdorigacha pul mukofoti beriladi.

Pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko'p bo'lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:

- ancha miqdor uchun - pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n besh foizi miqdorida;
- ko'p yoki juda ko'p miqdor uchun - pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n foizi miqdorida.

Bunda, pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymatini foizlarda hisoblashda qonunchilikda belgilangan miqdorning eng kam miqdoridan kelib chiqiladi.

**Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.**



# KO'ZLARINGIZNI ASRANG!

## KO'Z XIRALASHISHINING SABABLARI

Ko'zlar tanamizning eng muhim sezgi organlaridan biri bo'lib, sog'lom ko'rish uchun juda muhimdir. Ko'z kasalliklari ko'rish qobiliyatiga ta'sir qiladigan va hayot sifatini pasaytiradigan omildir.

So'nggi yillarda, ayniqsa, ko'zning xiralashishi kasalliklari keskin oshdi. Buning ko'plab sabablari bor. Ko'z kasalliklari kelib chiqishi nasliy bo'lishi ham mumkin. Naslga, yoshga, jinsga bog'liq bo'lmaganlari ham mavjud. Jahon tibbiyotida refraksiya anomaliyalari, (uzoq yoki yaqin yaxshi ko'rmaslik – miopiya, gipermetropiya, astigmatizm), turli ko'z jarohatlari, katarakta, glaukoma, presbiopiya (keksaygan sari ko'rishning pasayib borishi) kabi kasalliklar ko'p uch-



ramoqda.

Qolaversa, ekologik muvozanatning buzilishi, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida turli kimyoviy qo'shimchalarning ulushi tobora ortib borishi, nosog'lom turmush tarzi ko'z kasalliklari ko'payishiga sabab bo'ladi.

Kompyuter qarshisida uzoq muddat o'tirish, bolalikdan gadjetlarga mehr qo'yish, televizorni yaqindan tomosha qilish kabi odatlar ko'z kasalliklarining yosharib borishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, glaukoma nogironlikka olib keluvchi og'ir, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'z kasalligi hisoblanadi.

Ko'zda vitamin kamayishi hisobiga ko'rish xiralashmaydi. Hozir internetda yolg'on xabarlar ko'paydi. Falon vitaminni ichsangiz, ko'zoynaksiz yaxshi ko'rib ketasiz, deydi. Unaqa narsalarga ishonmaslik kerak. Ko'rishni yaxshilash uchun tabiiy mahsulotlar, oziq-ovqatlar, oqsil, yog' iste'mol qilish kerak.

Ko'z xiraliklariga yana bir sabab – ko'p miqdorda sho'r va shirin mahsulotlar iste'mol qilish.

Shuningdek, diabet kasalliklari, ko'p asabiylashish ham mazkur kasallikni keltirib chiqaradi. Qattiq asabiylashish oqibatida ko'zlar bir kunda xira bo'lib qolishi mumkin. Ayniqsa, yoshi kattalar stressdan o'zini olib qochishi kerak.

Ko'z xiralashishiga sabablardan yana biri – qon bosimining oshishi va qandli diabet kasalligi. Vaqtida qon bosimini o'lchatib turish kerak. Qon bosimi ko'tarilgani sari qon tomirlar devorida o'zgarish bo'lib, ko'zdagi qon quyilishlariga, ko'ruv nervidagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu qaytalanmaydigan jarayonlarga olib keladi. Qon tomirlarida o'zgarishlar bor odamlar spirtli ichimliklar ichishi mumkin emas.

## O'Z VAQTIDA ANIQLAB, DAVOLANING

Faqat o'z vaqtida aniqlab, to'g'ri davolanagan holda ko'zi ojizlikning oldini olish mumkin. Allergik va virusli kon'yunktivit, kompyuter sindromi kabi kasalliklarning kelib chiqishiga gigi-

ena qoidalariga rioya qilmaslik, dori vositalarini shifokor maslahatisiz uy sharoitida qabul qilish hamda o'z vaqtida shifokorga murojaat etmaslik



sabab bo'lmoqda.

Ko'rish o'tkirligi ancha pasayganda murojaat etilganda ko'rish nervi qaytarib bo'lmas o'zgarishlarga uchrashi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Bunday kasalliklarning oldini olish uchun ratsional ovqatlanish, jismoniy faollik, tozalik, ekologik muhit musaffoligi, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, o'z vaqtida hordiq chiqarish juda muhim. Naslida ko'z kasalliklari mavjud bo'lgan insonlar 35-40 yoshdan so'ng yiliga 2 marotaba ko'zlarini tekshirtirib turishi kerak. Shundagina kasalliklar erta aniqlanadi va ularni samarali davolash mumkin bo'ladi.

## NEGA BOLALARDA KO'P UCHRAYDI?

Yana bir muammo – bolalarda ko'z xiraligi ko'p uchraydi. Bunga sabab ularning ovqat tanlab yeyishi, iste'mol qilayotgan taomlarida oqsil va yog'lar yetishmasligidir. Shuningdek, dars qilayotganlarida yorug'likka e'tibor berilmasligi. Ya'ni bolalar dars qiladigan joyda tabiiy yorug'lik bo'lishi zarur. Dars stolini deraza yoniga joylash kerak, yoki stolga lampa o'rnatib berish lozim. Yorug' joyda o'qiganda ko'zda dofamin normal ishlab chiqariladi. Keyin ko'rish yaxshi bo'ladi. Agar yorug'lik kam bo'lsa, hujayralar dofaminni ko'proq ishlab chiqarishga harakat qiladi. Va ko'z o'sa bo'shlaydi. Ko'z o'sishi natijasida ko'rish xiralashib ketaveradi.

Telefon ko'p ishlatadigan insonlarga uning nurini pasaytirishni tavsiya qilamiz. Kechqurun iloji boricha telefon ishlatmaslik kerak. Chunki tunda nurning ko'pligi hisobiga ko'z zo'riqadi. Ba'zilar ertalabdan kechgacha telefonda ishlaydi. Ular nurdan himoyalovchi ko'zoynaklar taqib olsalar foydasi tegadi.

## KASALLIKNING BELGILARI



Ko'z kasalliklarining belgilari ma'lum bir kasallikning turi va kuchliligiga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, umumiy ko'rinishi mumkin bo'lgan ba'zi umumiy belgilari bor.

Ular xiraroq yoki ko'rishning pasayishi, ko'zlarida qizarish, qichishish xususiyati yoki yonish, ko'zlardagi og'riq yoki noqulaylik, nurga sezgirlik, doimiy namlik yoki quruq ko'zlar, ko'zlarda begona jism hissi, ranglarning xiralashishi yoki rangsizlanishi, ko'zlarda ikki tomonlama ko'rish, kechasi ko'rishning pasayishidir.


Ko'z salomatligi umumiy salomatligimizning muhim qismidir va ko'z kasalliklari bizning hayot sifatimizga ta'sir qiladi. Shuning uchun ko'zni muntazam tekshiruvdan o'tkazish va biron bir alomat paydo bo'lganda tezda mutaxassisga murojaat qilish muhimdir. Erta tashxis qo'yish va to'g'ri davolash ko'z kasalliklarining ta'sirini kamaytiradi va ko'rish salomatligini himoya qilishga yordam beradi.

## "QURUQ KO'Z" ALOMATLARI

"Quruq ko'z" sindromi ko'zning shox pardasini qoplaydigan ko'z yoshidan iborat plynkaning qurishi oqibatida kelib chiqadi. Odatda bemorlar ko'zning nurga sezgirliigi, og'riq, qichishish, quruqlik, ko'z ichiga qum kirgandek tuyulishi, achishish, xiralik yoki tuman paydo bo'lishi, ko'rish keskin pasayishidan shikoyat qiladilar.

Shunisi e'tiborga loyiqki, dastlabki bosqichlarda ba'zi o'ziga xos yoki aniq alomatlar ko'pincha bo'lmaydi va bemor noqulaylik va hayot sifatining pasayishi haqida tashvishlanadi. Yengil shaklda Quruq ko'z sindromi ish samaradorligiga ta'sir qiladi, og'ir shaklda u ko'rishning buzilishiga va hatto ko'rlikka olib kelishi mumkin.

"Quruq ko'z" kasalligi paydo bo'lganda xonada havo namligini oshirish, gadjetlardan ortiqcha foydalanishni kamaytirish, tamaki tutunidan qochish, kosmetika va ko'zni bezovta qiladigan boshqa mahsulotlardan foydalanishni to'xtatish kerak.



## KO'Z NURINI TIKLOVCHI MASHQLAR

Kompyuterda ishlayotganda, har soatda bir marta to'xtab ko'z nurini tiklovchi mashqlarni bajarish kerak.

10 soniya davomida tez-tez ko'zingizni pirpirating, so'ngra yana 10 soniya davomida o'z holingizcha qarang. (3 marta takrorlang).

Ko'zingizni yuming va ko'z qorachig'ini o'nga-chapga-tepaga-pastga aylantiring. (4 marta takrorlang).

Ko'zingizni yuming va tepaga hamda pastga qarang. (4 marta takrorlang).

Ko'zingizni qattiq yuming va tezda katta qilib oching. (5 marta takrorlang).

Bu kabi mashqlar 2 daqiqa vaqtinizni oladi, ammo ko'rish qobiliyatingizni uzoq muddat saqlaydi.

Agar siz bu mashqlarni har kuni qilsangiz, samarali ravishda ko'zingizga g'amxo'rlik qilgan bo'lasiz.

**Sahifani shifokor M. ALIMOV tayyorladi.**



# YANGI O'ZBEKISTONNING OLIMPIADA REKORDI

Joriy yilning 26-iyul kuni tantanali ochilgan Parij Yozgi Olimpiadasi 11-avgust kuni rasman o'zining poyoniga yetdi.

O'zbekiston Olimpiyadadagi ishtirokini tarixiy natija bilan yakunladi. Sportchilarimiz Parij Olimpiadasida 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medalni qo'lga kiritishdi.

2024-yilgi Olimpiyadada O'zbekiston medallar bo'yicha MDH davlatlari, Islomiy davlatlar, Turkiy xalqlar va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi o'rinni egalladi. Osiyoda esa Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreyadan keyin to'rtinchi o'rinni qayd etdi. Dunyo bo'yicha esa 208 ta davlat orasida jahonda O'zbekiston olimpiyadachilari 13-o'rinni egallashdi.

Bunaqasi mustaqil O'zbekiston va Olimpiyada harakati tarixida bo'lmagan.

Mustaqil O'zbekiston 1996-yil birinchi olimpiyadada bitta bronza olgan edi. Bu sovrinni bokschi Karim To'laganov yutgan edi. Bu mamlakatimiz uchun katta voqea bo'lgan. Bu safar 13 ta medal. Uning 8 tasi oltin.

Mamlakatimiz delegatsiyasining tarixiy muvaffaqiyatida bokschilarning hissi katta bo'ldi. To'lqin Qilichev bosh murabbiyligidagi charm qo'lqop ustalari dunyoning birinchi jamoasiga aylanishdi. Ular olimpiyadada mavjud 7 ta vaznning 5 tasida chempionlikni qo'lga kiritishdi. Hali biror Olimpiyadada hech bir davlat bokschilari bunday yuqori natijaga erishmagan ekan. Bu ham rekord bo'ldi.

Bu Yangi O'zbekiston yoshlari nimaga qodir ekanini butun dunyoga ko'rsatib, ularning natijalari tariximizda zarhal harflar bilan muhrlandi.



## MUNOSIB ISHTIROK

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan kombinatga qarashli "Metallurg" pansionatida O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan "V tarmoq Spartakiadasi"ning Respublika bosqichi o'tkazildi.

Unda tarmoq korxonalaridan tashrif buyurgan 150 nafardan oshiq ishchi-xodimlar sportning shashka, shaxmat, stol tennis, darts, suzish, mini-futbol, arqon tortish hamda yugurish estafetasi turlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar.

Spartakiadaning ochilish marosimida O'zbekiston Metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari Kasaba uyushmalari Respublika Kengashi raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi Ahmadjon Haqulov so'zga chiqib ishtirokchilarga omad tiladi.

Musobaqalarda kombinatimiz vakillari muvaffaqiyatli ishtirok etib umumjamoa hisobida 1-o'rinni olishdi. Eraklar o'rtasida shaxmatchilar bahsida Foziljon Jamalov, ayol shashkachilar orasida Zuleyxa Hakimova, darts bo'yicha Hanifa Qo'ziyeva birinchi o'rinni egallashdi. Shuningdek, jamoaviy yugurish estafetasida va arqon tortishda "O'zmetkombinat" AJ g'olib bo'ldi.

Stol tennisida Zarina Mirbabayeva ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Mavluda Kenjayeva shaxmatda, Bahrom Mirgulshanov shashkachilar o'rtasida 3-o'rinni oldi.

**Inom XOJIMURODOV.**

FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\*

## QATORASIGA UCHTA DURANG

Davrlar oralig'idagi tanaffusdan so'ng "Metallurg" 4-avgust kuni Olmaliq shahrida Toshkentning "Lokomotiv" jamoasini qabul qildi. Uchrashuvning 27-daqiqasida 11 metrlik jarima zarbasidan Marko Milichkovich jamoamizni hisobda oldinga olib chiqdi.

O'yinning 56-daqiqasida toshkentliklar "Metallurg" darvozasiga penaltidan to'p kiritishdi - 1:1. Bu hisob o'yin oxirigacha o'zgarmay qoldi.

\*\*\*

15-turda jamoamiz Jizzaxda chempionat yetakchilaridan biri - "So'g'diyona" bilan durang o'ynadi. 11-avgust kuni bo'lib o'tgan bu o'yinda hisobda ortda borgan futbolchilarimiz iroda ko'rsatishdi va qimmatli bir ochkoni qo'lga kiritishdi -2:2.

Uchrashuvning 22-daqiqasida jizzaxliklardan Lyupcho Doriyev penaltidan hisobni ochdi - 1:0. 38-daqiqada esa Balsa Sekulich mezbonlar darvozasiga gol urdi - 1:1.

4-daqiqadan so'ng I.Qobilovning to'pga bosh bilan bergan zarbasi aniq bo'ldi - 2:1. Hujumga zo'r bergan yigitlarimiz 74-daqiqaga kelganda yana hisobni tenglashtirishdi. Bu safar Azizbek Pirmuhammadov burchakdan yetkazib berilgan to'pni golga aylantirdi - 2:2.

\*\*\*

Mamlakat milliy chempionatining 16-turini 15-mart kuni Olmaliqda Farg'onaning "Neftchi" futbolchilariga qarshi o'tkazgan "Metallurg" jamoasi yana durang o'ynadi. Bu hamshaharlarimizning qatorasiga uchinchi, mavsumdagi o'ninchi durangi bo'ldi.

Uchrashuv bekobodliklarning keng maydon bo'ylab hujumlari bilan boshlan-

di. Aksariyat holatlarda hujum chizig'imiz o'yinchilariga sovuqqonlik yetishmadi. Ayrim holatlarda esa "Neftchi" posboni Botirali Ergashev mahorat ko'rsatdi.

Uzoq davolanishdan so'ng nihoyat maydonga qaytgan tajribali futbolchimiz Zabixillo O'rinboev qisqa fursat ichida ikkita xavfli vaziyat yarata oldi. Birinchi safar darvozabonning oldinga chiqib ketganidan foydalanib to'pni uning ustidan oshirib to'rga yo'llamoqchi bo'lgandi, Ergashev ortga qaytishga ulgurib qoldi. Ikkinchi safar esa qanotdan yetkazib berilgan to'pni boshi bilan darvoza sari yo'llagan edi, to'p darvoza to'sini ustidan biroz yuqorilab o'tib ketdi. Shu taxlit g'alabani judayam xohlagan jamoamiz yana durang bilan kifoyalanadigan bo'ldi - 0:0.

"Metallurg" 17-turda mavsumdagi yettinchi mag'lubiyatini qabul qilib oldi. 23-avgust kuni Samarqandning "Dinamo"ga qarshi Olmaliqda o'tgan o'yinda yana birgina xato bois jamoamiz mag'lubiyatga uchradi - 0:1.



## AYOLLAR BIRINCHI LIGASI

Ayollar birinchi ligasida "Metallurg - W" bir qator o'yinlarda maydonga tushdi.

7-turda "Metallurg - W" mavsumdagi eng kuchli o'yinini o'tkazdi. Bekobodliklar "Mash'al - W" jamoasini 14:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

Afsuski, bu o'yindan so'ng jamoa yana mag'lubiyatlar girdobiga tushib qoldi. Avvaliga 8-turda "Dinamo - W"ga 3:0, 9-turda "Andijon - W"ga 2:1 hisobida imkoniyat boy berildi.

Yozgi ta'tildan so'ng birinchi liga jamolari yana yashil maydonga qaytishdi.

10-avgust kuni ligada 10-tur o'yinlari o'tkazildi. Shu kuni "Metallurg - W" safarda "Aral - W" jamoasi bilan kuch sinashdi. Bu o'yinda maydon egalari 3:0 hisobida yirik g'alaba qozondilar.

Navbatdagi turda bekobodliklar 15-avgustda "Xorazm-W" jamoasiga qarshi maydonga tushib, 2:3 hisobida imkoniyatni boy berishdi.

11-turdan so'ng "Metallurg - W" 3 ta g'alaba qozondi, 1 bor durang o'ynab, 7 ta mag'lubiyatga uchradi. 10 ochko jamg'argan jamoamiz musobaqa jadvalida 8 ta jamoa orasida 6-o'rinda bormoqda.



IBRAT IZLAGANGAN IBRATDIR DUNYO

QURT TUSHGAN OLMA QISMATI

Luqmoni Hakimning farzandi o'ziga nomaqbul do'stlarni ulfat bilibdi. Ular bilan bordi-keldini ko'paytirib borishi har qanday ota singari Luqmoni Hakimning ham g'ashini keltiribdi. Bir kuni u o'g'lini chaqirib:

- Bolam, do'stning bo'lgani yaxshi, ammo do'st tanlashda adashib qolma. Hozirgi do'stlaringning xulqi yaxshi emas. Senga yomon ta'sir ko'rsatishlari mumkin - deb nasihat qilibdi.

O'g'li esa o'ziga ishonch bilan:

- Otajon, siz menga kuchli tarbiya bergansiz, pand-nasihatlaringiz har doim qulog'im ostida turadi, do'stlarimning yomon xulqlari menga aslo ta'sir ko'rsatmaydi, xavotir olmang - deb chiqib ketibdi.

Shu asnoda Luqmoni Hakim bog'dorchilik ishlari-ga o'g'lini yordamga chaqiribdi. Qarasa, o'g'li butun olmalarni alohida, kam sonli bo'lsada, qurt tushgan

olmalarni esa alohida savatga joylayapti ekan. Hakim o'g'liga barcha olmalarni bir savatga joylayverishini tayinlab o'z ishida davom etibdi.

Vaqt o'tibdi, zarur bo'lganda olmalar qo'yilgan joyga borib qarashsa, barcha olmalarga qurt tushib butuni kam qolgan ekan.

Luqmoni Hakimning o'g'li unga e'tiroz bildirib:

- Otajon, olmalarni qo'shib terishimni buyurib edingiz, qurt tushgan bir ikki olmani deb butun olmalar-ni hammasini qurtga yem qilibmiz-ku -debdi.

Ota esa bir jilmayib qo'yib:

- Ko'rdingmi, bolam, garchi qurt tushgan olmalar kam bo'lsada sog'-butun olmalarni ham buzibdi, ularga ham qurt tushiribdi. Sen qanday qilib qalbiga qurt tush-gan ulfatlaring bilan bir joyda ko'p vaqtga qolasanu ular orasidan sog'lom qalb bilan qayta olasan - deb aytgan ekan.



BEHUDA UMR

Yong'oq qurti o'zi sig'adigan teshik ochib, yong'oqni ichiga kirib nima bo'lsa yeydi. Yegan sari semiradi va to'yadi. Yong'oq ichida hech narsa qolmagandan so'ng, tash-qariga chiqishga intiladi. Teshik kichik bo'lgani uchun tashqariga chiqolmaydi. Undan ham yomoni yong'oqning ichi quriy boshlaydi, endi teshikni kengaytirishning imkoni qolmaydi. Birgina chora ozimoq bo'ladi. Yong'oq ichida majbur ochlikdan ozib, eski zaif holiga qaytib tashqariga chiqadi. Qarasaki uning uchun mavsum tugab ortda qurigan yong'oqdan boshqa hech narsa qolmagan bo'ladi.

Ba'zi insonlarning yashash tarzi xuddi yong'oq qurti kabidir. Mol-dunyo dardida umrini behuda narsalar bilan o'tkazib yuboradi. Endi bo'ldi munosib shaklda buyurilganday yashay deganda umrining so'nggi damlarini yashayotgan bo'ladi.

HIKMATLAR XAZINASI

Bir narsa istamoqchi bo'lsang, insondan istama!

Zero bersa minnatdir, bermasa zillat (xorlik)dir!

Allohdan istaginki, bersa ne'matdir, bermasa hikmatdir...

**Jaloliddin Rumi.**  
\*\*\*

Yaxshilik qil, jahon yaxshilik olsin,

Yaxshilar boshiga yaxshilik solsin.

Mol-dunyo barchadin - sendan ham qolur,

Yaxshisi mol emas, yaxshilik qolsin.

**Abdurahmon Jomiy.**

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!



O'tgan asrning 60-70-yillarida bekobodlik metallurglar orasida eng yaxshi ishlayotganlarning suratlari qo'yilgan "Hurmat taxta"si qerda joylashganligini bilasizmi?  
\*\*\*

1994-yil 16-noyabrda Respublika Prezidentining Farnoni bilan kombinatning eng ilg'or ishchi-xodimlari qanday xizmatlari uchun mukofotlanganlar?  
\*\*\*

Metallurgiya zavodi mutaxassislari nechanchi yillarda, qaysi xorij davlatlariga borib, hamkasblariga ish o'rgatishib, ularning malakalarini oshirganlar?  
\*\*\*

Donishmandlarning aytishicha insonning ikki xislati unga foyda keltirar ekan. Bu qanday xislatlar?  
\*\*\*

Qaysi ikki ish insonning sha'ni-ni yuksaltirishini bilasizmi?  
\*\*\*

Qadim zamonlarda musulmon tib mutaxassislari shifoxona qurish uchun joyni qanday aniqlaganlar?  
\*\*\*

Ko'zning ko'z nuri va nurning sinishi hamda qaytarilishi xususiyatlarini kashf qilib zamonaviy

fotokameralarning yaralishiga asos bo'lgan olim kimligini bilasizmi?

**Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.**

**Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.**

Bu qaror Respublika rahbari Usmon Yusupov tashabbusi bilan 1947-yili chiqarilgan. Shundan so'ng 30 nafar bola tanlab olinib, Magnitogorsk texnikumiga metallurgiya sohasiga o'qitish uchun yuborilgan.  
\*\*\*

Yoshligi va kuch-quvvati.  
\*\*\*

Rossiyaning Sibir hududida dunyodagi kislorodning 25 foizi hosil bo'ladi. Bu yerda AQSH maydonidan ham kattaroq hududda o'rmon joylashgan.  
\*\*\*

Inson vafot etishi oldidan umri davomida qalbini nimalarga to'ldirgan bo'lsa, o'sha narsalar tiliga keladi. O'limdan oldin aytilgan eng oxirgi so'z va gap uning umri davomida eng ko'p e'tibor qaratgan narsalari bo'ladi.  
\*\*\*

Qattiq charchoq, mudroq va ko'p esnash tanamizda bakteriyalar to'planib qolganidan dalolat.  
\*\*\*

Kaltakesaklarning ba'zi turlari shu darajada tez chopadiki, hatto daryo va ko'llar yuzasidan suvga g'arq bo'lmay yugurib o'tishi mumkin.

XANDALAR

Bir qari badavlat odam kechqurun uyiga qaytsa, xizmatkori:

- Ha, qari to'nka! Qaerlarda yuribsan? - desa, boy pinagini buzmay:

- Qulog'imga eshitadigan apparat sotib olgani borgandim, - dermish.  
\*\*\*

- Nima ish qilasan?

- Ishlab chiqarish bilan shug'ullanaman.

- Nima ishlab chiqarasan?

- Kislorod yutib, karbonad angidrit chiqaraman.  
\*\*\*

Shifokor ko'rigida:

- Ayting-chi, doktor, menga shu pullik operatsiyani qilish zarurmi?

- Albatta! Bu operatsiyasiz umuman Amirsoyga borib bo'lmaydi.

- Men Amirsoyga borishni xohlamayman!  
- Siz haqingizda gapirmadim...

FOYDALI MASLAHATLAR

• Inson jigari to'rt narsani: xom karam, tvorog, qattiq non, asalni yaxshi ko'radi.

• Yozda tez-tez sovuq suvda yuvinib tursangiz, yuragingiz, jigaringiz ish faoliyati yaxshilanadi.

• Shirguruch inson umrini uzaytiradi, erkaklik urug'ini ko'paytiradi.

• Hammomdan keyin tishni yuvsangiz, tez oqaradi.

• Namatakni qaynatib choy o'rni-da ichish nihoyatda foydali.

• Muntazam o'tirib ishlaydigan odam har soatda o'rnidan turib yursin.

• Olma inson organizmiga barcha zarur narsalarni yetkazib beradi. Har kuni ikki dona olma yeyish kifoya qiladi.



**MUASSIS:**  
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

**Muharrir:**  
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar "O' zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining Metallurglar madaniyat saroyida joylashgan.  
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va "Niso nashriyot va matbaa uyi" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'rta Chirchiq tumani "Mash'al" mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

**Sahifalovchi:**  
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00  
Bosishga topshirildi-14.20  
Adadi 600. Bichimi A-3.  
ISSN 2181-645X  
Gazeta "O' zmetkombinat" AJda bepul tarqatiladi.